

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁶⁸

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi

muxlisamadaminjonova12@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy gumanitar va san’at fakulteti” “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelajak avlodning ma’naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san’atning tutgan o‘rni hamda uning ahamiyati yoritilgan. Tasviriy san’at orqali bolalarning dunyoqarashi kengayishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi va milliy hamda madaniy qadriyatlarning o‘zlashtirilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, estetik tarbiya, ijodiy rivojlanish, kelajak avlod, ma’naviy tarbiya, madaniy qadriyatlari, milliy meros.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk bo‘lishi uchun ularga ma’naviy va estetik tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lmish tasviriy san’at, o‘zining go‘zallik va estetikani anglash, his qilishga undovchi imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tasviriy san’at orqali yoshlar nafaqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki dunyoni o‘z ko‘zlari bilan idrok etishga va o‘z munosabatlarini ifodalashga o‘rganadilar.

Tasviriy san’atning ta’siri va tarbiyaviy ahamiyati:

Tasviriy san’at bolalarga ham estetik, ham intellektual rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chizish, bo‘yash yoki shakllar yaratish jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, san’at asarlarini tomosha qilish bolalarda didni rivojlantiradi, go‘zallikni anglashga va qadrlashga o‘rgatadi. San’at tarbiyachilari va pedagoglar tasviriy san’at orqali milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish imkoniga ega. Yoshlar o‘z milliy merosi bilan tanishish orqali o‘z ildizlariga bog‘liq his qilishni, milliy o‘zlikni anglashi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro san’at bilan tanishish global dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Tasviriy san’at va ijodiy rivojlanish:

Tasviriy san’atning yosh avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Yoshlar tasviriy san’at orqali o‘z fantaziyalarini erkin ifodalay olish imkoniga ega bo‘ladi. Ijodiy jarayonlar tafakkur va analistik fikrlashni rivojlantiradi. Misol uchun, ranglar va shakllar bilan ishlash jarayonida bolalar har xil uslublarni o‘rganadi, bu esa ularning estetik didi va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Tasviriy san’at insonning ma’naviy olamini boyitib, uning ichki dunyosini ifodalashga va tinchlantiruvchi kuchga ega. Tasviriy san’at maktab dasturlarida ham ko‘zda tutilgan, chunki u yosh avlodda nafaqat ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlantiradi, balki ular uchun ruhan tinchlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar o‘z fikr va his-tuyg‘ularini tasviriy san’at orqali ifodalashni o‘rganadilar, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Estetik tarbiya yosh avlodga go‘zallikni anglash va qadrlashni o‘rgatadi. Tasviriy san’at orqali bolalar ranglar, shakllar va kompozitsiyani tushunib yetadilar, bu esa ularning atrof-muhitga estetik munosabatini shakllantiradi. Bolalarga san’at asarlarini tahlil qilish va baholash orqali ularni go‘zallikni qadrlashga va tafakkur qilishga o‘rgatish mumkin. Bu jarayon ularning didi

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁶⁹

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

va estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni yanada sezgir va ijodkor shaxslar qilib tarbiyalaydi.

Tasviriy san'atda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning o'rni bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar tasviriy san'atga yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Raqamli san'at, 3D dizayn va grafika kabi texnologiyalar orqali bolalar va yoshlar an'anaviy chizishdan tashqari, kompyuter yordamida ham o'z ijodlarini namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Ushbu yangi yondashuvlar orqali yoshlar nafaqat an'anaviy san'atni o'rganadilar, balki zamonaviy texnologiyalarning san'at sohasiga olib kirgan innovatsiyalarini ham o'zlashtiradilar. Bu esa kelajak avlodning texnologiyalar bilan yanada ijodiy ishslash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tasviriy san'atga ulkan hissa qo'shgan rassomlar asarlari va ijodiy uslublari bilan insoniyat madaniy merosini boyitgan shaxslar hisoblanadi. Ularning ijodi nafaqat estetik didni shakkantiradi, balki zamonaviy san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Butun dunyoga mashxur bo'lgan Leonardo da Vinci – Uyg'onish davrining eng buyuk rassomlaridan biri bo'lib, o'zining ko'p qirrali ijodi bilan mashhur. Uning "Mona Liza" va "So'nggi kechki ovqat" kabi asarlari insoniyat san'atining eng yuksak namunalaridan sanaladi. Da Vinci faqat rassom emas, balki ilm-fan, mexanika va anatomiya bilan ham shug'ullangan olim edi. Uning anatomik tadqiqotlari inson tanasining tuzilishini mukammal tasvirlashda yordam berdi va tasviriy san'atning realistik jihatlarini yanada rivojlantirdi yana bir buyuk rassomlardan biri bu Michelangelo – Uyg'onish davrining yana bir buyuk rassomi, haykaltaroshi va me'mori. U o'zining "Dovud" haykali, "Sixtina kappellasi shift freskasi" va "Yaratilish" kabi asarlari bilan mashhur. Michelangelo inson tanasining aniq va kuchli ifodasi bilan ajralib turadi, uning asarlari klassik idealizm va anatomik aniqlik bilan uyg'unlashgan. 19 asrning eng buyuk rassomlaridan biri esa Picasso – kubizm asoschilaridan biri va zamonaviy san'atning eng taniqli rassomlaridan biridir. Uning ijodi bir necha davrlarga bo'lingan bo'lib, u ko'plab uslublarda ishlagan. Picasso realistik tasvirlardan tortib, kubistik tajribalarga qadar turli yo'nalishlarda ijod qilgan. Uning "Avinyon qizlari" va "Gernika" asarlari san'atda o'ziga xos yondashuvini aks ettiradi. Picasso ko'plab san'at yo'nalishlarini yaratishga hissa qo'shgan va san'atning doimiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bu rassomlar tasviriy san'atda inqilobi yangiliklar qilgan va o'zlarining betakror asarlari orqali san'at tarixida ulkan iz qoldirgan shaxslar hisoblanadi. Ularning ijodi bugungi kunda ham yosh avlod uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki tasviriy san'atning kelajak avlod tarbiyasidagi o'rni juda keng va ko'p qirrali. U yoshlarning psixologik, estetik, madaniy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Shu sababli, tasviriy san'at maktab va oiladagi ta'lim-tarbiyaning muhim qismi sifatida ko'rishi lozim. San'at orqali o'qitish va tarbiya bolalarning nafaqat ijodiy, balki shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi, ularni kelajakda yetuk, ma'naviy boy va ijodkor shaxslar bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjaev, A. "San'at va tarbiya." T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2021.
2. Karimova, D. "Tasviriy san'at darslarining tarbiyaviy roli." T.: Sharq nashriyoti, 2020.
3. Rashidova, S. "Yosh avlod tarbiyasida san'atning o'rni." Pedagogika jurnalining maxsus soni, 2019.